

Date: 3rd July-2026

EDGAR ALLAN PONING PSIXOLOGIZMDAGI BADIY MAHORATI

Xalimov Saloxiddin Samiyevich
Qarshi davlat universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada taniqli yozuvchi Edgar Allan Poning badiiy psixologizmdan foydalanish mahorati, ijodining takomilida sabab bo'lgan omillar haqida fikr yuritilgan hamda yozuvchining tarjimai holi bilan bog'liq "Ligeiya" hikoyasi tahlil qilingan. Shuningdek, yozuvchi ijodida ta'sir ko'rsatgan ijtimoiy va maishiy hayot to'g'risida ayrim xulosalar bayon qilingan.

Kalit so'zlar: Psixologizm, badiiy shakl, poetik model, mubolag'a san'ati, mubolag'adorlik poetikasi, novella, falsafiy-majoziy mazmun, axloqiy-estetik munosabatlar.

Abstract: This article discusses the famous writer Edgar Allan Poe's mastery of using artistic psychologism, the factors that contributed to the development of his work, and analyzes the story "Ligeia" related to the writer's biography. Also, some conclusions are made about the social and everyday life that influenced the writer's work.

Keywords: Psychologism, artistic form, poetic model, art of hyperbole, poetics of hyperbole, short story, philosophical-figurative content, moral-aesthetic relations.

Аннотация: В данной статье рассматривается мастерство известного писателя Эдгара Аллана По в использовании художественного психологизма, факторы, способствовавшие развитию его творчества, и анализируется рассказ "Лигейя" в контексте биографии писателя. Также делаются некоторые выводы о социальной и повседневной жизни, повлиявшей на творчество писателя.

Ключевые слова: психологизм, художественная форма, поэтическая модель, искусство гиперболы, поэтика гиперболы, рассказ, философско-образное содержание, морально-эстетические отношения.

Badiiy adabiyotning insonshunoslik ekanligi nutaqi nazaridan qaraganda odam hayoti, uning ish-faoliyati, o'ylari, quvonchlari, iztiroblari asosan ruhiyat manzaralari, ichki, xayoliy kechinmalari, tushlari orqali talqin etiladi. Bularning barisi qo'shilib, psixologik holatlar tahlili, psixologizm tizimi kabi uslublar majmuini yuzaga keltiradi.

Adabiyotshunos A.B. Yesenining aytishicha, "Psixologizm – bu adabiyotning o'ziga xos vositalari ko'magida xayoliy (to'qima) shaxslarning (adabiy personajlar va yetakchi qahramonlarning) his-tuyg'ulari, fikrlari, o'y-xayollari va kechinmalarini mukammal ravishda tasvirlay olish uslubidir".

Darhaqiqat, taniqli so'z san'atkorlari asarlarining umrboqiyligi, xalqchilligi avvalo g'oyaviy ko'lamni, obrazlar xarakter-xususiyatini psixologik jihatdan qay tarzda mufassal tasvirlay olganliklari bilan bevosita bog'liqdir. Buni amerka adabiyotining yirik vakili Edgar Allan Po hikoyalari misolida ham kuzatishimiz mumkin. Adibning "Ligeiya" hikoyasi psixologik nutqiy xarakteristikaga tayangan chuqur ruhiy tasavvurlar ko'lami bilan boshlanadi. Asarning lirizmi go'zal sanam xayoli, ruhiy jihati esa o'sha go'zalni

Date: 3rd July-2026

allaqanday, mungli, qayg'uli tarzda eslayotgan kishining xotiraviy psixologik holati va bu holatning tushkun mohiyatidir. Tushkun ohangdan ma'lum bo'ladiki, bu sevgi tarixi murodiga yetmagan, oshiq qalbini g'am tumaniga qoplab ketgan. Hikoya shu tariqa og'ir va dilgir kechmish xotiralarining o'tkir va zardobli tuyg'ulariga chulg'angan g'amgin modeli asosiga qurilgan dilgir poetikasiga ega bo'lgan asar tusini olgan. Ba'zi asarlarida Edgar Poning tasvirlari xayoliymi, hayotiy ekanligini bilib bo'lmaydi. Chunonchi, uning o'zi hayotda bu xayol-niyatlari, intilish va iztiroblari ichra to'lg'anib, garanglanib, hatto, telbavorlanib yurarkan, asarlariniyam shunday to'lg'oqlar ichra yozganligini sezish qiyin emas.

E.Po asarlaridagi obrazlar goh xayoliy tarzda chin hayotdagi kishi, goho ko'z oldimizda yurgan hayotiy shaxslar esa xayol-xotiradagi timsol bo'lib namoyon bo'ladi. Ligeya badiiy timsoli ham shunday obraz - ham xayoliy, ham hayotiy tasavvur modelida e'tiborni tortadi. Yuqoridagi parchada ishlatilgan, anig'i, Ligeya timsolining go'zalligi va bezavolligini yanada aniqroq namoyon qiladigan taqqos - "Delos qizlari" tashbehi Yunoniston afsonalaridan olingan talqin bo'lib, unda Ligeya Delos orolida tavallud topgan va o'z dugonalari bilan yashagan bokiralik hamda ma'sumalik timsolidagi beg'ubor Artemida malohatiga o'xshatilgan.

Ligeyaning psixologik portret tizimida "musulmon farishtalarning tillarda doston go'zalligi bo'lib ko'rinishi"ni tabiiy ishonch va faxr bilan tasvirlashi E.Poning Sharq ma'naviyatidan, islom dini ma'hifatidan xabardorligini va hatto bularga ehtiromi va ixlosi balandligini ko'rsatadi. Aksincha, u hali 16-18 yoshli o'spirin chog'i buyuk xudodod hukmdor Amir Temur haqida, uning sevgi va ma'naviyat borasidagi nozik tuyg'ulari borasida lirik hislarga boy doston yarata olmasdi.

Ko'ramizki, E.Po Ligeya ma'naviy-ruhiy olami, uning go'zallikda notakror husni-jamoli talqinlarida, muallif nutqida psixologik tahlil imkoniyatlaridan g'oyatda o'rinli va unumli foydalangan.

Ligeyaning psixologik portreti tizimida hamda nutqiy xarakteristika talqinlarida uning o'ta bilimdonligi, zukkoligi kabi fazilatlari ham o'z ifodasini topgan:

"Men Ligeyaning bilimdon ekanligini eslab o'tgan edim, bunday ulkan bilimdonlikni boshqa bironta ayolda uchratmaganman, lekin axloqiy, moddiy va riyoziy ilmlarning barcha poyonsiz sohalarini egallagan, qoyil qilib egallagan erkakning o'zi bormikin? Hozircha ayon bo'lgan narsalarni u paytda hali yaxshi bilmasdim: Ligeya o'zlashtirgan bilimlar poyonsiz va hayratomuz edi; har holda men uning behad-behisob ustun ekanligini anglab yetardim va shu bois nikohimizning dastlabki yillari men metafizika sohasida bevoshroq izlanishlarga boshim bilan jo'shib ketgan va bunda men uning rahnamoligiga bolalarcha tobe edim."

Bilimdonlik, go'zallik va hayo-ibo sohibasining tiynatiga oltin uzukka marvarid qosh qo'ygandek yarashliqlilik va salmoqdorlik bag'ishlaydi. Edgar Po garchi qisqa hayotida nuqul iztiroblar ichra yurgan, ro'shnolik ko'rmagan, sevgan umr yo'ldoshi Virjiniyadan juda bevaqt ayrilgan bo'lsa-da, bu shafqatsiz va o'tkinchi hayotdan erta ketishni o'ylamagan, o'lim bilan muttasil kurashgan.



Date: 3rd July-2026

Ligeyaning kutilmaganda og'ir kasalga duchor bo'lishi E.Poning go'zal yori Virjiniyaning sil kasaliga giriftor bo'lganligining ifodasi sanaladi. Ligeyaning xavfli kasalikka giriftor bo'lishi psixologik nutqiy xarakteristika uslubida talqin qilingan:

“Uning ko'zlari men tinimsiz muk tushib o'qiyotgan sahifalarga tobora siyrak nur sochardi. Ligeya kasalga chalindi. Telbasaro nigohi tobora qizarib o't sochardi; qonsiz barmoqlari bo'zday oqardi; shukuhli manglayidagi ko'k tomirlari pichagina hayajonlansa, ko'tarilib tush boshlardi. Men uning o'lishi tayin ekanligini ko'rdim, jon-jahdim bilan badqovoq Azroyilga qarshi hayot-mamot jangiga otlandim. Joni ichiga sig'mas xotinim ham, meni ortiq hayratga solib, mendan ham qattiqroq olisha boshladi. Uning jiddiy fe'l-atvoriga qarab, o'lim odatdagi vahimasiga solmay uni o'z hukmiga olsa kerak deb o'ylardim; o, yo'q! uning o'lim sharpasiga qanchalar shiddat bilan qarshilik ko'rsatganligini ifodalab berish uchun so'zlar ojiz”.

Mazkur psixologik portret hamda psixologik nutqiy xarakteristika asosidagi talqin hayotsevar insonlarning o'lim ofatiga nisbatan qanchalik shiddat bilan qarshi turishlarining haqiqatidir.

“Ligeya” hikoyasi nasrda yozilgan, uning o'ziga xos tomonlaridan biri sharqona sa'j yo'liga monand uslubda yaratilganligidir.

Mazkur hikoyaning g'oyaviy pafosi, syujet tizimi jihatdan ikkinchi qismi deyish mumkin bo'lgan Ligeyaning qazosidan keyingi talqinlari “qalb dialektikasi”ning o'ta murakkab va aziyatli holati bilan e'tiborni tortadi.

Edgar Po ham qisqa qirq yillik umri davomida muttasil ruhiy qisinish, oilaviy va ijtimoiy yetishmovchiliklar, kambag'al-qashshoqlik azoblari ichra shunday ruhiy xastalik dardini chekib yashagan. Uning asarlaridagi qahramonlar hayotidagi shunday o'tkir xayolparastlik, telba-teskari holatlar, mag'lubiyat va kutilmagan o'limlar adibning o'z shaxsiy hayotining analogiyalari ekanligi taassurotni paydo qiladi.

AQSh va Yevropa, jumladan, rus olimlari va ijodkorlarining Edgar Po haqidagi ishlarida uning eng mashhur asarlarini nihoyatda og'ir ruhiy qiynoqlar ichra yurgan vaqtlar yaratganligini maxsus qayd qilganlar. Professor N.Shodievning ta'rificha: “Adabiy gallyusinatsiya - bu adabiy qahramonning o'ta dramatik, tragik ruhiy iztiroblari va shafqatsiz kechinmalarining natijasi. Ma'lum bir ijtimoiy maishiy sabablar, og'ir sharoit va murakkab vaziyatlar tufayli ayrim kishilar ana shu ruhiy xastalikka yo'liqishadi. Ba'zilar tabiatan shu majruhlikka moyil bo'lsa, ayrimlari ilojsizlikdan, muqarrar fojiasini his etgan holda boshqa ilinjning yo'qligiga ishongach, umidsizlikdan shu og'ir kasalga muhtalo bo'lishadi”.

Edgar Po ijtimoiy hayot azoblari ichra devonalarcha yashaganligi ma'lum. U bunday azobu qiyinchiliklar ko'lamini adabiy qahramonlari tasviriga ko'chirgan. Mashhur ingliz yozuvchisi Bernard Shou Edgar Poning mashaqqatli va fojiona ijodiy taqdiri haqida fikr yuritib, “U Amerikada yashamadi, Edgar Po bu yerda o'limini topdi!” deya qayd qilgan ekan.

“Ligeya”ning ikkinchi qismi deb atash mumkin bo'lgan keyingi qismi hikoyachining Angliyaning “eng huvillagan kimsasiz, ovloq joylarida bo'lgan” bir abbatlik mulkini sotib olgani va “unutilgan Ligeyaning o'rnini bosar, - deb yangi mahram –



Date: 3rd July-2026

sochlari sariq, ko‘zlari moviy tremeyilik ledi Roven Trevinionni” yangi qo‘rg‘oniga olib kelganiga guvoh bo‘lamiz. Yetakchi qahramon Ligeyaning o‘limidan so‘ng “men qayg‘u g‘uboriga cho‘mdim, Reyn bo‘yidagi tanazzulga yuz tutgan, xira shahardagi qo‘polg‘amda yolg‘iz alam-qayg‘uga botib, kun ko‘rishga toqatim qolmadi” degan hasratini bayon qiladi.

Baxtga qarshi, kutilmagan og‘ir kasalga duch kelgan Roven ham bevaqt vafot etadi. Garchi shohona qasrdek yangi uyida yana bir go‘zal xonimga erishgan esa-da, hikoyachi yigitning bor xayol-intilishini marhuma Ligeyaning aziz xotirasi bilan bog‘langan edi. Uning yangi sotib olgan koshonasi naqadar hashamdor, noyob buyumlarga kon go‘sha bo‘lmasin, bu ulkan hasham qo‘ynida xayolan qo‘rqinchli manzaralar, aloq-chaloq tushlar va yovuzona harakatlar tasavvuri ichra kuchli hadik bilan yashaydilar.

Roven va Ligeya tasavvurlari ichra ruhiyatidagi keskin qarama-qarshi psixologik iztiroblar silsilasi uning gallyusativ xastalik yoqasidagi tushkun holatining manzaralari namoyon bo‘ladi. Ligeya muhabbatining pokiza sog‘inchlariga g‘arq bo‘lgan qahramonning ruhan alanga otash bo‘lib yonishi oqibatida uning og‘uga – nashaga, ichuvchanlikka g‘oyatda berilib ketishi gallyusativ holatini yanada kuchaytiradi.

G‘arb va Amerika adabiyoti ulkan vakillari yaratgan asarlarning muvaffaqiyatida adabiy-badiiy san‘atlardan ancha unumli foydalanganligiga guvoh bo‘lamiz. Shu jumladan o‘z ijod olamida G‘arbu Sharq falsafasini, adabiy an‘analarini beixtiyor uyg‘unlashtira olgan Edgar Allan Po asarlarining mukammal badiiy rangdorligida, quyuq poetik jozibadorligida Sharq poetikasiga xos fazilatlar yorqin namoyon bo‘ladi. Garchi Sharq adabiyotida shakllangan badiiy san‘atlar nomini, vazifalarini aniq bilmagan ham. Mohiyatan o‘xshatish, sifatlash, talmeh, mubolag‘a, majoziylik, husni ta‘lil, tanosub kabi san‘atlar g‘arblik salmoqli asarlarda ham keng qo‘llanilgan. Majoz, mubolag‘a (grotesk) kabi badiiylik turlari ba‘zan o‘rganilgan esa-da, qolganlirini badiiy mahorat turlari va uning zaruriy qirralari sifatida tadqiq va tahlil etishga e‘tibor kamroq bo‘lgan. “Ligeya” hikoyasining yutug‘i – psixologik uslub turlaridan ancha mukammal foydalanilganligi boisidan, sharqona bo‘liq poetik jozibalarga boy ruhda yaratilganligi bilan bevosita bog‘liqdir.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Yesen A.B. Psixolgizm rasskoy klassicheskoy literatury. «Prosveteniye», 1988, str.18.
2. Po E.A. Buyuk Temur. –T.: Yangi asr avlodi, 2016. 60 bet.
3. Po E.A. Buyuk Temur. –T.: Yangi asr avlodi, 2016. 63-bet.
4. Po E.A. Buyuk Temur. –T.: Yangi asr avlodi, 2016. 64-bet.
5. Shodiev N.Ruhiyat rassomi. T.: “Fan”, 1977, 41 bet.
6. Ibroximova M. Qolipga sig‘magan umr. T.: “A‘lo kayfiyat” jurnali, 2012 yil, 9 son, 33 bet